

TIBBIYOTGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ostonova Dilnoza

ToshDO 'TAU o'zbek tili va adabiyoti ta'limi

mutaxassisligi 3-kurs talabasi

E-mail: dilnozaostonova34@gmail.com

Tel: +998 93 662 03 46

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyotga oid terminlarning shakllanishi, manbalari, semantik xususiyatlari hamda ularning o'zbek tilidagi o'rni va ishlatilishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tibbiy terminlarning leksik tahlili orqali ularning tuzilishi va lingvistik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *tibbiy termin, leksik tahlil, terminologiya, o'zlashma so'zlar, semantika.*

Annotation: This article discusses the formation, sources, semantic features of medical terms, as well as their role and use in the Uzbek language. Also, through the lexical analysis of medical terms, their structure and linguistic features are revealed.

Keywords: *medicinal term, lexical analysis, terminology, borrowed words, semantics.*

Termin (lotincha terminus – chegara, chek) gapdan tashqarida olinganda ham aniq bir ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi birikmadir. Uning lug'aviy ma'nosi ham shuni anglatadi. Demak, termin hamma so'zlar singari oddiy so'z bo'lib, u ham ma'lum bir mustaqil tushunchani anglatadi va bir yoki bir necha nutq tovushining birikishidan iborat bo'lgan bir vosita hisoblanadi.

Terminning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bir qator me'yoriy talablar qo'yilgan. Dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S. Lotte tomonidan ana shunday me'yoriy talablar ishlab chiqilgan. Ushbu talablar ko'plab olimlar, jumladan,

I.N. Volkova, A.V. Krijanovskaya, L.A. Simonenko va boshqalarning ishlarida to'ldirilgan va kengaytirilgan¹.

D.S. Lotte "termin" maqolasini 1922-yilda yozgan, lekin faqat 1994-yilda nashr etilgan. Olim bu atamani falsafiy nuqtayi nazardan ko'rib chiqqan va terminlarning bilish jarayonidagi ulkan rolini ko'rsatib bergan. Muallifning so'zlariga ko'ra, "fan va falsafa – bir tilli organizmning ikki qo'li" va bu atama – ilmiy bilimlarni jamlashga qodir bo'lgan fikrning cho'qqisi, "pishgan so'z", "yetuk so'z". Muallif atama va "kundalik so'z" o'rtasidagi farqni asoslab berdi. Aytishimiz mumkinki, ushbu maqola terminologik birlikning murakkab mohiyatini tushunishga zamin yaratadi. Mahalliy terminologiyani shakllanishi D. Lotte nomi bilan bog'liq. Aynan u terminologiyani o'rganish zarurligini asoslagan, shuningdek, terminologiyani o'rganishda tasniflash (statik) yondashuvning asoschisi bo'lgan².

Tibbiyot – inson salomatligini saqlash, davolash va profilaktik choralarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli ilmiy-amaliy soha hisoblanadi. Bu sohada qo'llaniladigan maxsus lug'at birligi – tibbiy terminologiya muhim rol o'ynaydi. Har qanday ilmiy sohada bo'lgani kabi, tibbiyotda ham tushuncha va atamalar aniq, bir ma'noga ega bo'lishi kerak.

Tibbiyot bilan bog'liq bo'lgan tibbiy-biologik va boshqa bir necha fanlarga oid alohida atamashunoslik tizimlaridan iborat bo'lgan atamalarga tibbiy atamalar deyiladi. Ularning ichida o'z tushuncha va obyektlariga lotincha nom bergan uchta asosiy yo'nalishdagi tizim bor bo'lib, ular lotin tili so'z boyliklaridan turli hajm va darajada foydalanadi.

Tibbiy atamalarining tizimlari quyidagilardan iborat:

1. Anatomik va gistologik nomenklatura.

Bu turkum hozirgi kunda ma'lum bo'lgan barcha anatomik va gistologik atamalarni o'z ichiga oladi.

¹ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2019. – B.108.

² Флоренский П. А. Термин [Текст] / П. А. Флоренский // В. А. Татаринов. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М.: Московский Лицей, 1994.

Hozirgi zamon xalqaro anatomik nomenklaturasi (Nomina anatomica) birinchi marta, Parijda 1955-yilda anatamlarning VI xalqaro kongressida qabul qilingan va lotincha soʻzlarning bosh harfidan iborat qisqartma shakl – RNA tarzida ifodalangan. Oʻsha vaqtdan beri u bir necha bor toʻldirilgan va oʻzgartirishlar kiritilgan. Birinchi Sovet nashri soʻz boshisida bu fan tarixida birinchi boʻlib xalqaro tan olingan lotincha anatomik atamalar roʻyxati sifatida qayd etilgan. Hozirgi kunda ham lotin tili fanning barcha sohalari tili boʻlib qolmoqda. RNA 5600 dan ortiq anatomik obyektini qamraydi. 1965-yili Sovet gistologlari tomonidan lotin tilida tuzilib, anatamlarning Leningrad (Sankt-Peterburg)da boʻlib oʻtgan IX xalqaro kongressida rasmiy ravishda qabul qilingan xalqaro gistologik nomenklatura paydo boʻldi. 1970-yilda Leningrad gistologik nomenklaturasi (INH) yana ham toʻldirildi, oʻzgartirishlar kiritildi, hozirgi kunda u 2750 dan ortiq atamalarni oʻz ichiga oladi. 1980- yilda Meksikada boʻlib oʻtgan anatamlarning XI xalqaro kongressida (RNA) va (INH) toʻldirildi va oʻzgartirildi. Nomenklaturalarning lotincha matni asosida ishlab chiqilgan, keyinroq 1986-yilda boʻlib oʻtgan butunittifoq anatamlar, gistologlar, embriologlar syezdida tasdiqlangan ruscha ekvivalent atamalar roʻyxati ham hozirgi kunda oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

Bu nomenklaturadan unumli va toʻgʻri foydalanish, lotincha atamalarning toʻgʻri talaffuzini bilish, mustaqil holda lugʻatlarsiz lotincha atamalar yasay olish uchun lotin tili boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda yetarli darajada bilim va koʻnikmalarni egallash zarur.

2. Klinik atamalar.

(Yunoncha *klinike techne* – hakimlik sanʼati, yotib davolanuvchi bemorlarga qarash). U turli klinik mutaxassislikka oid pathos – kasallikni oʻrganuvchi fanlar, jumladan, patologik anatomiya va patologik fiziologiya atamalarini oʻz ichiga oladi. Eng avval, xirurgiya (*cheirurgia*), ish faoliyat, kasalliklarning nomlari, patologik jarayon va holatlar, kasallik belgilari, simptomlar (yunoncha *symptome* – belgi) va sindromlar (yunoncha *syndrome* – belgilar hosil boʻlishi), operatsiya nomlari, tadqiqot va davolash usullari, tibbiy uskunalar, asboblari va boshqalar ham lotincha nomlanadi.

Klinik atamashunoslik bu ma'ruzalarda, kasallarni tekshirishda, kasallik tarixini yozishda, darslik va yo'riqnomalar bilan ishlashda duch keluvchi minglab nomlar va atamalardir. Tibbiy atamashunoslikning bu tizimida lotin tilini qo'llash majburiy emas. Bu narsa ko'proq maktabga, an'analarga, madaniyat darajasiga va asosiysi tibbiyot xodimi faoliyatini qamrovchi maxsus adabiyotlarning (darslik, lug'at va b) turiga bog'liq. Klinik atamashunoslikda qo'llangan kasalliklarning rus va o'zbekcha nomlari bilan birga lotincha ekvivalentlari ham ishlatilinaiveradi: churra tushish (*hernia*), suyak sinish (*fractura*), rak (*carcinoma*), ich terlama (*typhus abdominalis*) va boshqalar.

Klinik atamalardan mopirona, unumli va samarali foydalanish uchun qadimgi yunon tili so'z yasash vositalarini bilish zarur, chunki klinik atamashunoslikda ulardan keng foydalaniladi.

3. Farmatsevtik atamalar.

Bu o'simliklardan va kimyoviy moddalardan tayyorlangan dori-darmonlarning nomi. O'zbekistonda tayyorlanayotgan har bir dori bir vaqtning o'zida ham o'zbekcha, ham lotincha nom oladi. Keyingisi lotin tilida retsept yozilganda qo'llaniladi. Bizning mamlakatimizda dori preparatlarining minglab nomi bor. Bularga dorivor o'simliklar, noorganik va organik, kimyoviy, sintetik va yarimsintetik birikmalar kiradi.

Tibbiyotga oid yangiliklar, kasalliklar, dorilarning nomi bir necha asrlar davomida lotin-yunon tilida berilgan (masalan, cardio – yurak, neuro – asab, derma – teri, hepatitis – jigar shamollashi, osteoporosis – suyak erishi kabi³) va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili deb tan olingan. Bu esa tibbiy olimlarni hamkorlikda ishlashga undaydi⁴.

Rus tili orqali o'zlashgan so'zlar: Sovet davrida o'zbek tiliga kirib kelgan terminlarning aksariyati rus tili yordamida o'zlashtirilgan. Masalan: apenditsit, onkologiya, stomatolog, diagnostika.

³ Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug'ati: o'quv qo'llanma 1-jild. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – B. 8.

⁴ Boliyev M. N. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi: tibbiyot kollejlari uchun darslik. 7-nashri, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – Toshkent: ILM ZIYO, 2011. – B. 4.

O'zbek tilidagi so'zlar asosida yaratilgan milliy atamalar haqida gapiradigan bo'lsak, mustaqillik davrida ko'plab tibbiy terminlar o'zbek tiliga moslashtirildi yoki yangidan yaratildi: dil kasalligi (kardiopatiya), nafas yo'llari shamollashi, jigar yallig'lanishi va boshqalar.

Tibbiy terminlar leksik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

Monosemantik (bir ma'noli) bo'lishi: tibbiy terminlar ko'pincha faqat bitta aniq ilmiy tushunchani bildiradi. Bu esa noaniqliklarning oldini oladi. Masalan, bronxit deganda bronxlarning yallig'lanishi tushuniladi.

O'zgarmas shaklga ega bo'lishi: terminlar qisqa va aniq ifoda etiladi. Bu esa ularning tez hamda qulay ishlatilishini ta'minlaydi.

Sintetik tuzilishi: ko'plab tibbiy terminlar bir nechta so'z yoki morfemalardan tashkil topgan bo'lib, murakkab tuzilishga ega. Masalan: gastroenterologiya (gastro – oshqozon, entero – ichak, logiya – fan).

Leksik qatlamga oidligi: tibbiy terminlar ko'pincha ilmiy uslub doirasida ishlatiladi, ammo ba'zilar umumxalq leksikasiga ham kirib borgan (gripp, virus, infeksiya).

Terminlarning semantik tahlili ularning ma'nosini tahlil qilish orqali tushuniladigan lingvistik jarayondir. Misollar: arterioskleroz – arteriya devorlarining qattiqlashuvi (arterio – arteriya, skleroz – qattiqlashish). Dermatolog – teri kasalliklarini davolovchi mutaxassis (derma – teri, log – mutaxassis). Hemorroy – orqa chiqaruv yo'llaridagi vena kengayishi (hemo – qon, rhoos – oqish).

Bu tahlillar orqali terminlarning semantik asoslari ochiladi, bu esa tibbiyot sohasi vakillari va tarjimonlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tibbiy terminologiya tili ilmiy, aniqlik va izchillikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tibbiy terminologiyani rivojlantirishda mutaxassislar, lingvistlar va tarjimonlar o'rtasida hamkorlikda ishlash, mavjud terminlarni tizimlashtirish va zamonaviy lug'atlar orqali yangilab borish zarur. Ayniqsa, yangi tibbiy texnologiyalar, kasallik turlari va davo usullari bilan bog'liq terminlarning doimiy ravishda tilga kirib kelishi ularni lingvistik tahlil qilish va mos

terminlarni yaratishni talab etadi. Tibbiy terminologiyaning leksik va semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish tibbiyot fanining rivoji, tarjima amaliyoti hamda o'zbek tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda tibbiy terminologiyani rivojlantirish va uni standartlashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abrayeva S. Lotin tilining tibbiyot terminologiyasida roli. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Авербух К. Общая теория термина. Иваново: Ивановский государственный университет, 2004.
3. Boliyev M.N. Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi: tibbiyot kollejlari uchun darslik. 7-nashri, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – Toshkent: ILM ZIYO, 2011.
4. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar, 2019.
5. Esonovna A. S. Lotin va yunon tillarining tibbiyot terminologiyasidagi o'rni. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
6. Флоренский П. А. Термин [Текст] / П. А. Флоренский // В. А. Татарinov. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М.: Московский Лицей, 1994.
7. Qosimov A. Tibbiy terminlar izohli lug'ati: o'quv qo'llanma, 1-jild. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003.